

O'ZBEKISTONDA XALQARO AUDIT STANDARTLARINI QO'LLASH MASALALARI ULARNING MOHIYATI VA VAZIFALARI

Temirov Shaxzod

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xalqaro audit standartlarini qo'llash masalalari rivojlanish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv va nazorat usullari — xalqaro audit standartlari, KPI ko'rsatkichlari hamda byudjetlashtirish mexanizmlari asosida auditorlik jarayonlari, hisob yuritish tizimlari va nazorat funksiyalarining rivojlanish tendensiyalari o'r ganilgan. AT Aloqa banki misolida markaziy va filial darajasida auditorlik faoliyatining dinamikasi, ichki auditning samaradorligi, moliyaviy nazoratning takomillashuvi hamda bank boshqaruvida auditorlik tizimining o'rni chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: auditorlik faoliyati, rivojlanish bosqichlari, AT Aloqa banki, xalqaro audit standartlari, KPI, byudjetlashtirish, raqamlı boshqaruv, ichki audit, avtomatlashtirish

Annotation: In this article, the formation, development stages, and prospects of auditing activities in the Republic of Uzbekistan are analyzed, and scientifically grounded proposals for their further improvement have been developed. The study examines the development trends of auditing processes, accounting systems, and control functions based on modern management and monitoring methods — international auditing standards, KPI indicators, and budgeting mechanisms. Using the case of AT Aloqa bank, an in-depth analysis has been carried out on the dynamics of auditing activities at the central and branch levels, the effectiveness of internal audit, the improvement of financial control, and the role of the auditing system in bank management.

Keywords: auditing activity, development stages, AT Aloqa Bank, international auditing standards, KPI, budgeting, digital management, internal audit, automation.

Kirish

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da bank tizimi samaradorligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, banklarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga to'liq mosligini ta'minlash hamda AT Xalq banki misolida auditorlik jarayonlarini zamonaviy raqamlı texnologiyalar asosida tashkil etish nazarda tutilmoqda. Bu esa

nafaqat banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining ochiqligi va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliyabank tizimini isloh etish hamda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, auditorlik tekshiruvlarini raqamlashtirish, mustaqil auditorlik tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va auditorlar malakasini oshirish orqali moliyaviy nazoratning sifatini oshirish choralari ko'rilmoxda.

Mavzuning dolzarbliги

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining hajmi va ko'lamlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Auditorlik xizmatlari tarkibida moliyaviy hisobot audit, ichki audit, tashqi audit, komplayens tekshiruvlari hamda maxsus konsalting xizmatlari ko'paygani sari ushbu faoliyatni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham ortib bormoqda. Xizmat turlarining kengayishi natijasida operatsion va boshqaruv xarajatlarining oshishi auditorlik faoliyatining umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois auditorlik faoliyatining samaradorligini baholashda – auditorlik xizmatlari rentabelligi, mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifat darajasi, auditorlik jarayonlari natijasida aniqlangan moliyaviy xatoliklarni bartaraf etish tezligi, shuningdek, ichki nazorat tizimining mustahkamligi kabi indikatorlarni turli faoliyat yo'nalishlari kesimida chuqur tahlil qilish zarur.

Bugungi kunda global moliya bozoridagi o'zgarishlar, xalqaro audit standartlarining jadal rivojlanishi hamda iqtisodiy barqarorlik talablarining ortib borishi auditorlik faoliyatini boshqarish metodologiyasini chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, ushbu metodologiyani milliy bank tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish va uni ilg'or xalqaro tajribalar asosida yanada rivojlantirish zarurati tobora kuchaymoqda. Shu bois, tijorat banklarida, auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish mamlakatimiz bank sektorining barqarorligi hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, auditorlik faoliyatini aniq yo'nalishlar kesimida hisobga olish va baholash xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tijorat banklari faoliyatini rejalashtirish hamda nazorat qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. Xususan, xalqaro amaliyotda auditorlik xizmatlarini turkumlash va ularning samaradorligini baholash orqali moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish, shuningdek, mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish yuqori natijalar bergen. Bundan tashqari, KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) va byudjetlashtirish tizimlari auditorlik faoliyatini maqsadli va natijaviy boshqarishda muhim vosita sifatida tan olingan. KPI ko'rsatkichlari yordamida auditorlik jarayonlarining

samaradorligi, aniqlangan xatoliklarning qisqartirilishi, tekshiruv muddatlari va xizmatlar sifati kabi indikatorlar kuzatib boriladi. Byudjetlashtirish tizimi esa auditorlik faoliyatini moliyalashtirish resurslarini oqilona taqsimlash, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatishdan olinadigan qiymatni oshirish imkonini beradi.

Xalqaro audit standartlari xalqaro miqyosda auditorlik faoliyatining sifati va mavqeini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu standartlar va me'yorlar bir qancha sohalar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- a) audit bo'yicha xalqaro me'yorlar;
- b) boshqaruv hisobining xalqaro amaliy qoidalari;

v) jamoat sektori bo'yicha xalqaro me'yorlar. IFAC hisob va auditga doir barcha faoliyatini o'zining qo'mitalari orqali tashkil etadi va amalga oshiradi. Hozirgi vaqtida bular jumlasiga: auditorlik amaliyoti bo'yicha qo'mita, o'qitish bo'yicha qo'mita, etika (axloq) bo'yicha qo'mita, moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi bo'yicha qo'mita, rejalashtirish bo'yicha qo'mita, jamoat sektori bo'yicha qo'mita va boshqalar kiradi.

Xalqaro auditorlik amaliyoti qo'mitasi xalqaro audit standartlari (XAS)ni chop etish huquqiga ega. Ushbu hujjatning maqsadi auditorlar tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlar yuzasidan XAS chop etadigan kontseptual asosni yoritishdan iborat. Soddalashtirish maqsadida, maxsus ko'rsatma mavjud bo'lgan holatlar bundan istisno, "auditor" atamasi Xalqaro audit standartlari matni bo'yicha auditorlik 8 xizmatlari bilan bir qatorda, kasbga doir xizmatlarni ko'rsatadigan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Bunda kasbga doir xizmatlarni ko'rsatayotgan shaxs albatta sub'ekt moliyaviy hisobotining auditori bo'lishi lozim degani emas. Moliyaviy hisobot, odatda har yili tayyorlanadi va taqdim etiladi, keng doiradagi foydalanuvchilarning umumiyligi ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan.

Xalqaro audit standartlarining kontseptual asosi auditor tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlar, masalan, konsalting, soliqqa tortish, shuningdek buxgalteriya hisobi va moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatlar uchun qo'llanilmaydi.

Mamlakatimizda asta-sekin auditning milliy standartlari ishlab chiqilmoqda. Auditning milliy standartlarini ishlab chiqishda, avvalo, xalqaro standartlarga murojaat etiladi. Xalqaro audit standartlari Xalqaro buxgalteriya standartlari bo'yicha qo'mita tarkibida doimiy qo'mita huquqlariga ega bo'lgan Auditorlik amaliyoti bo'yicha xalqaro qo'mita tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu qo'mita 1973 yilda to'qqiz mamlakat, ya'ni Kanada, Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya

Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlari	Natijalar	Istiqbollar
1-bosqich: Shakllanish davri	1992–2000 yy.	Auditorlik faoliyati mustaqil institut sifatida joriy qilindi. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi dastlabki qonun qabul qilindi.	Milliy auditorlik kompaniyalari tashkil topdi, banklar moliyaviy hisobotlarini tekshirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.	Normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash zarurati paydo bo‘ldi.
2-bosqich: Institutsional rivojlanish	2001–2010 yy.	Auditorlik standartlari ishlab chiqildi, litsenziyalash tizimi shakllantirildi. Xorijiy konsalting kompaniyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.	Audit xizmatlari sifati oshdi, banklarda mustaqil moliyaviy nazorat mexanizmlari kengaydi.	Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.
3-bosqich: Modernizatsiya	2011–2020 yy.	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) joriy qilina boshlandi. Raqamli texnologiyalar auditorlik faoliyatiga tatbiq etildi.	Audit jarayonlarining shaffofligi kuchaydi, xalqaro tajribaga yaqinlashuv kuzatildi.	Kadrlar malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash.
4-bosqich: Raqamlashtirish va xalqaro integratsiya	2021 yildan hozirgacha	“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Onlayn audit tizimlari va masofaviy nazorat mexanizmlari joriy etilmoqda.	Banklar faoliyatida moliyaviy shaffoflik sezilarli darajada oshdi, xalqaro hamkorlik kuchaydi.	To‘liq raqamlashtirilgan audit tizimini shakllantirish, xalqaro standartlarga to‘liq moslashish.

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida tuzilgan

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini, xususan AT “Aloqa banki” misolida, xarajatlarni nazorat qilish tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslarini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Ushbu vazifani amalga oshirishda aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo‘llanilib, nazariy va empirik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali muammoni kompleks o‘rganish ko‘zda tutilmoqda. Bunday metodologik yondashuv xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda o‘zining yuqori samaradorligini namoyon etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida islohotlar jarayonida auditorlik faoliyatini takomillashtirish va uni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish jarayonlari keng rivojlanmoqda. Auditorlik faoliyati banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minalash, ularning ichki nazorat tizimini mustahkamlash va moliyaviy hisob-kitoblarning shaffofligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Tijorat banklari auditorlik faoliyatini tahlil qilish ko‘rsatkichlari, mln.so‘m. (AT “Aloqa banki” misolida)

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Bankning jami aktivlar qiymati	26 920	31 670	31 712	35 945
Bankning jami kapital qiymati	5 480	5 319	5 320	5 780
Bankning jami kreditlari qiymati (mlrd so‘m)	2 734	2 906	3 774	4 580
Bankning jami depozitlari qiymati (mlrd so‘m)	654	619	774	1 334
Bankning jami daromadlari (foizli daromadlar, mlrd)	4 623	4 677	6 250	6 122
Bankning jami xarajatlari (foizli xarajatlar, mlrd)	3 580	3 457	4 328	3 918
Likvidlik ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m)	1 855	350	389	379
Rentabellik ko‘rsatkichlari (sof foyda/zarar,), % da	2 187	8	248	269
Kapital yetarliligi (subordinar qarz nisbati), % da	83%	331%	138%	56%
Samaradorlik ko‘rsatkichlari (CIR, %), % da	97%	84%	81%	85%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, AT “Aloqa banki”ning jami aktivlari 2022 yildagi 26,9 trln so‘mdan 2025 yilga kelib 35,9 trln so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini, kredit va investitsion faoliyatini kengaytirayotganini ko‘rsatadi. Aktivlarning bunday o‘sishi, asosan, kredit portfeli va depozitlar hajmidagi ijobiy dinamikaga tayanadi. Kapital holati. Kapital qiymati 2022 yilda 5,48 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 5,78 trln so‘mni tashkil etmoqda. Kapital hajmining arar oshmaganligi, bankning ustav kapitalini qo‘sishma manbalar bilan mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, subordinar qarzlar ulushi yuqori bo‘lgani sababli kapital yetarliligi ko‘rsatkichlarida o‘zgaruvchanlik mavjud. Kredit portfeli. Bankning kreditlari 2022 yildagi 2,7 trln so‘mdan 2025 yilda 4,6 trln so‘mga oshgan. Bu esa bankning asosiy daromad zarar bo‘lgan kreditlash hajmi barqaror rivojlanayotganini bildiradi. Kredit portfelining o‘sishi bilan birga, bank uchun kredit risklarini samarali boshqarish va qaytmas kreditlarni kamaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Depozitlar hajmi. Depozitlar hajmi 2022 yildagi 654 mlrd so‘mdan 2025 yilda 1,3 trln so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich bankka bo‘lgan mijozlar ishonchi ortib borayotganini va raqamli bank xizmatlarining samarali joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Depozit bazasining kengayishi likvidlikni ta’minalash va yangi kreditlar berish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa va Takliflar

Xulosa O'zbekistonda, jumladan AT "Aloqa bank" tijorat bankida auditning xalqaro standartlarini joriy etish jarayoni faol davom etmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoxda, ammo hali ham bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Auditning xalqaro standartlarini to'liq joriy etish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Audit sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.
2. Normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish. 3. Audit jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.
4. Manfaatdor tomonlar o'rtasida audit natijalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.
5. Xalqaro audit tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda, auditning xalqaro standartlarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchlilagini oshirish, shuningdek investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori.
2. Karimov, A., Juraev, N., & Karimova, G. (2022). O'zbekiston bank tizimida xalqaro audit standartlarini joriy etish muammolari. Moliya va bank ishi, 3(45), 78-86.
3. Ikramov, M., & Ahmadjonova, K. (2021). Bank sektorida xalqaro audit standartlarini joriy etish: xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun saboqlar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(12), 120-131.
4. Popova, L., Maslova, I., & Korostelkina, I. (2023). Implementation of international auditing standards in transition economies: case of Uzbekistan. International Journal of Auditing, 27(2), 245-261.
5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). (2022). Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.
6. World Bank. (2022). Report on the Observance of Standards and Codes (ROSC): Accounting and Auditing – Uzbekistan.
7. Delloite. (2023). Global trends in implementation of international auditing standards. Deloitte Research Report.
8. Abduraximov, S. (2023). O'zbekiston bank sektorida auditning xalqaro standartlari joriy etilishining afzalliklari. Bozor, pul va kredit, 5, 45-51